

## **INSULIN PREPARATINING ORGANIZMDAGI AHAMIYATI**

**Sultonbayeva Ruxsora Xudayshukur qizi  
Sayfulloyeva Sevinch Erkinovna**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabalari

+998886511416

+998948428212

[sayfullayevasevinch18@gmail.com](mailto:sayfullayevasevinch18@gmail.com)

**Tadqiqot maqsadi:** Insulin preparatining ishlatalish holatlari va ularning organizmdagi nojo'ya ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va metodlari: Qandli diabetning insulinga bog'liq turi bilan kasallangan bemorlarda qo'llanilib , bemorlarni kuzatish va ularning klinik –labarator tekshiruv natijalarini taqqoslash usullaridan foydalanilgan holda ushbu tadqiqot ishlari amalga oshirildi . Insulin organizmda oshqozon osti bezining langergans hujayralari tomonidan ishlab chiqarilib , qonda glukoza miqdorini me'yorashtirib turadi. Insulin terapiyasi- bu bemorning tanasiga insulin preparatlarini kiritish orqali uglevod almashinuvi buzulushining kompensatsiyasiga erishishga qaratilgan chora tadbirlar hisoblanadi. Insulin terapiyasi uchun ko'rsatmalar: 1-toifa diabet , ketoatsidoz , diabetik giperosmolyar , giperlaksidemik koma , qandli diabetda homiladorlik , diabetik nefropatiya . Tibbiyotda ishlataladigan insulinning bir qancha turlari bor: tez ta'sir qiluvchi ( insulin lispro , insulin aspart ) ular organizmgaga yuborilgandan 5 daqiqa o'tib ta'sir etib boshlaydi , 1 soatda yuqori darajaga yetadi tasir kuchi 2 -4 soat davom etadi.Qisqa tasir qiluvchi oddiy insulin tasiri 30 daqiqada yuzaga chiqadi inyeksiyadan keyin 2 -3 soat o'tib yuqori darajaga yetadi tasir davomiyligi 3 -6 soat. O'rta tasirli insulin tasiri 2- 4 soat davomida yuzaga chiqadi tasir davomiyligi 12 -18 soatga teng. Uzoq muddat tasir ko'rsatuvchi insulin (ultralente) inyeksiyadan keyin 6 -10 soatda tasiri yuzaga keladi, davomiyligi 22 -24 soatgacha davom etadi , bular glukoza miqdorini qonda bir xil miqdorda saqlab turishni taminlaydi. Insulin hujayralarning tashqi sitoplazmatik membranasi spetsifik retseptorlari billan bo'g'lanib hujayra ichki jarayonlari shu jumladan muhim fermentlarning (geksogeneza, piruvatkinaza , giloken sintetaza) sintezini rag'batlantiradi. Glukozaning qondagi miqdorini pasayishi uni

hujayra ichiga tashilishining oshishi to'qimalarda yutilishi jigarda glukoza hosil bo'lishining tezligi pasayishi bilan bog'liq. Yarim chiqarish davri ( $T \frac{1}{2}$ ) teri osti to'qimalardan so'rilib tezligi bo'yicha aniqlanadi.  $T \frac{1}{2} = 5 - 10$  soatni tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalari: insulin preparatining yuborilishi , farmakokinetikasi , farmakodinamikasi , ta'sir davomiyligi , ko'rsatmalar va bemordagi o'zgarishlar haqida yozildi.

Xulosa: O'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatadiki , insulin preparati qandli diabet , giperglikemik koma shunga o'xshash qonda glukoza miqdori oshishi bilan bog'liq kasalliklarda ishlataladi . Insulin preparatlarini qo'llashda asoratlarini hisobga olgan holda mutaxasis bilan maslahatlashib foydalanish lozim .

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Dialektika 2006 S.496
2. S.S.Azizova - farmakalogiya " oqsil – peptidli tuzulishga ega dori vositalari" Toshkent "Yangi asr avlod" 2006
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ma'lumotlaridan foydalanilgan 2000-2005-yil